ABU HOMID ĞAZZOLIYNING “TAVBA” ASARIDA TAVBA TUŞUNCASI VA UNING AXLOQIY TARBIYADAGI ÕRNI

BAHROMOV UMID
ŞAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ÕQITUVCHISI

ABDURAIMOVA XOLIDA
ŞAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI TALABASI
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.24437478

Annotatsiya: Maqolada Abu Homid Ğazzoliyning “Tavba” asarida tavba tusşuncasining mazmun-mohiyati, inson ma’naviy kamolotidagi ahamiyati va axloqiy tarbiyadagi õrni tahlil etiladi. Şuningdek, tavbaning inson xulq-atvori, õzini anglash va ma’naviy poklanishga ta’siri yoritiladi.

Kalit sõzlar: Abu Homid Ğazzoliy, tavba, axloq, ma’naviyat, tarbiya, nafs, poklanish.

Аннотация: В статье анализируется сущность понятия покаяния в произведении Абу Хамида аль-Газали «Тауба», его значение для духовного совершенствования человека и нравственного воспитания. Также рассматривается влияние покаяния на поведение человека, самопознание и духовное очищение.

Ключевые слова: Абу Хамид аль-Газали, покаяние, нравственность, духовность, воспитание, душа.

Annotation: The article examines the concept of repentance in Abu Hamid al-Ghazali's work “Tawba”, focusing on its significance for spiritual development and moral education. It also explores the influence of repentance on human behavior, self-awareness, and spiritual purification.

Keywords: Abu Hamid al-Ghazali, repentance, morality, spirituality, education, soul.

KIRIŞ : Insoniyat tarixida ma’naviy kamolot, axloqiy poklik va komil insonni tarbiyalash masalalari barcha davrlarda muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Insonning jamiyatdagi õrni, uning xulq-atvori, odob-axloqi va ma’naviy dunyosi nafaqat shaxsiy hayotida, balki ijtimoiy munosabatlarda ham muhim mezon hisoblanadi. Şu jihatdan, insonni ezgulikka undash, yomon xatti-harakatlardan qaytarish, õz xatolarini anglash va ularni tuzatishga intilish kabi masalalar Şarq mutafakkirlari ilmiy-ma’naviy merosining asosiy yõnalishlaridan birini tashkil etadi.

Islom falsafasi va tasavvuf ta’limotida insonning ma’naviy poklanishi, nafsni tarbiyalash hamda axloqiy jihatdan kamol topishi alohida õrin egallaydi. Ushbu jarayonda tavba tusşuncasi muhim ma’naviy-axloqiy mezon sifatida namoyon bõladi. Tavba insonning õz xatolarini anglab yetishi, notõğri yõldan qaytishi, qilgan gunohlaridan pushaymon bõlishi va kelgusida bunday xatti-harakatlarni takrorlamaslikka qat’iy qaror qilishi bilan boğliq murakkab ruhiy jarayondir. Demak, tavba faqat diniy tusşunca bõlib qolmasdan, insonning õzini tarbiyalashi va xulq-atvorini takomillashtirishiga xizmat qiladigan axloqiy qadriyat hamdir.

Islom tafakkuri tarixida ushbu masalalarni chuqur tadqiq etgan buyuk mutafakkirlardan biri Abu Homid Muhammad al-Ğazzoliy hisoblanadi. Uning ilmiy-ma’naviy merosida inson qalbini poklash, nafsni

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

jilovlash, ezgu fazilatlarni shakllantirish va ma’naviy kamolotga erishish masalalari keng yoritilgan. Ayniqsa, “Ihyo ulum ad-din” asarining tavbaga bag‘ishlangan qismi insonning ma’naviy hayotida tavbaning õrni, uning şartlari, bosqichlari va tarbiyaviy ahamiyatini tusşunishda muhim manba hisoblanadi.[1]

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda yosh avlodni yuksak axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalash, ularda õz xatti-harakatlariga tanqidiy munosabatda bõlish, mas’uliyat, vijdon va halollik kabi fazilatlarni shakllantirish muhim vazifalardan biridir. Ğazzoliy qarashlaridagi tavba tusşuncasini õrganish orqali insonning õzini anglash, xatolarini tan olish, ularni bartaraf etish va ma’naviy jihatdan takomillashish jarayonining mohiyatini ocib berish mumkin.

Maqolaning maqsadi Abu Homid Ğazzoliyning “Tavba” asarida ilgari surilgan tavba tusşuncasining falsafiy va axloqiy mazmunini ocib berish, uning inson ma’naviy kamoloti hamda axloqiy tarbiyasidagi ahamiyatini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Maqolaning asosiy vazifalari Ğazzoliyning ilmiy-ma’naviy merosida tavba tusşuncasining õrnini aniqlash, tavbaning mohiyati va tarkibiy bosqichlarini tahlil qilish, uning inson xulq-atvoriga ta’sirini yoritish hamda mazkur qarashlarning zamonaviy axloqiy tarbiya jarayonidagi ahamiyatini asoslashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya: Abu Homid Ğazzoliyning tavba haqidagi qarashlarini õrganishda, avvalo, uning “Ihyo ulum ad-din” (“Diniy ilmlarni jonlantirish”) asari muhim nazariy manba sifatida namoyon bõladi. Mazkur asar qirq kitobdan tashkil topgan bõlib, unda insonning diniy, axloqiy va ma’naviy hayotiga oid masalalar tizimli ravishda bayon etilgan. Asarning najotga eltuvchi fazilatlarga bag‘ishlangan qismida tavba alohida kitob sifatida yoritiladi. Ğazzoliy tavbani insonni ma’naviy halokatdan qutqaruvchi, qalbni gunohlardan poklovchi va uni ezgulikka yõnaltiruvchi muhim omil sifatida talqin qiladi.

Mavzuning ilmiy-nazariy asoslarini shakllantirishda Ğazzoliyning “Kimyoi saodat”, “Mizon ul-amal” va “Ihyo ulum ad-din” asarlari muhim ahamiyatga ega. Ushbu asarlarda insonning iccki dunyosi, nafs tarbiyasi, axloqiy fazilatlarni shakllantirish, õzini nazorat qilish va ma’naviy kamolotga erishish masalalari õzaro boğliqlikda tahlil qilingan. Mutafakkirning axloqiy qarashlarida insonning haqiqiy kamoloti tashqi xatti-harakatlar bilangina emas, balki uning qalbi, niyati va iccki dunyosining pokligi bilan ham belgilanadi.

Ğarb şarqşunosligida ham Ğazzoliy merosini õrganishga katta e’tibor qaratilgan. Frank Griffelning “Al-Ghazali’s Philosophical Theology” asarida mutafakkirning falsafiy va diniy qarashlari, uning intellektual faoliyati hamda ma’naviy dunyoqarashi tadqiq etilgan. Atif Khalilning “Repentance and the Return to God: Tawba in Early Sufism” tadqiqotida esa islom tasavvufida tavba tusşuncasining shakllanishi, uning ruhiy va ma’naviy mazmuni keng yoritilgan. Şuningdek, Stanford Encyclopedia of Philosophy nashrida Ğazzoliyning axloqiy qarashlari, nafs tarbiyasi va insonda ezgu fazilatlarni shakllantirishga doir fikrlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Mazkur maqolani tayyorlashda tarixiylik, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, mantiqiy umumlashtirish va matn tahlili metodlaridan foydalanildi. Tarixiylik metodi orqali Ğazzoliy qarashlari shakllangan davrning ilmiy-ma’naviy muhiti hisobga olindi. Tizimli tahlil asosida tavbaning bilim, pushaymonlik va amaliy harakatdan iborat bosqichlari õzaro boğliqlikda õrganildi. Qiyosiy tahlil yordamida mutafakkirning axloqiy qarashlari tasavvufiy tarbiya tamoyillari bilan solishtirildi. Mantiqiy umumlashtirish orqali esa tavba tusşuncasining zamonaviy axloqiy tarbiya uchun ahamiyati asoslab berildi.

Muhokama va natijalar : Abu Homid Ğazzoliy XI–XII asrlarda yashab ijod qilgan, islom falsafasi, kalom, fiqh va tasavvuf rivojiga katta hissa qõshgan mutafakkirlardan biridir. U insonning ma’naviy dunyosi, axloqiy fazilatlari va ruhiy kamolotiga oid masalalarni õz ilmiy merosining markaziga qõygan.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Ğazzoliy ta’limotida inson hayoti faqat moddiy ehtiyojlarni qondirish bilan cheklanmaydi, balki uning asosiy maqsadi ma’naviy poklanish, ezgu amallarni amalga oshirish va komillikka intilishdan iboratdir.

Mutafakkirning fikricha, inson tabiatan turli istak va mayllarga ega bõlib, ularning ayrimlari notõğri yõnalishga xizmat qilishi mumkin. Şu sababli inson õz nafsini nazorat qilishi, xatti-harakatlarini tahlil etishi va ma’naviy jihatdan õzini tarbiyalab borishi zarur. Bu jarayonda tavba alohida ahamiyat kasb etadi. Tavba arab tilidagi “qaytish” ma’nosini anglatib, insonning gunoh va xatolardan voz kecib, tõğri yõlga qaytishini ifodalaydi.

Ğazzoliy tavbani oddiygina pushaymonlik yoki afsuslanish holati sifatida izohlamaydi. Uning qarashlarida tavba insonning ongida, qalbida va amaliy faoliyatida yuz beradigan yaxlit õzgarish jarayonidir. Boshqaca aytganda, inson õzining notõğri xatti-harakatlarini anglab yetishi, ulardan cin dildan afsuslanishi va kelgusida bunday holatlarni takrorlamaslikka qat’iy ahd qilishi lozim.

Mutafakkir tavbaning mohiyatini uchta asosiy tarkibiy qism orqali tusşuntiradi:

1. Bilim va anglash. Inson dastlab sodir etgan gunoh va xatolarining mohiyatini, ularning õziga hamda boshqalarga yetkazadigan zararini anglab yetishi kerak. Bu bosqichda inson õz xatti-harakatlariga ongli ravishda baho beradi.

2. Pushaymonlik. Õz xatosini anglagan inson qalbida afsus va nadomat hissi paydo bõladi. Ğazzoliy nazarida bu holat tavbaning muhim ruhiy asosidir. Chunki cinakam pushaymonlik insonni õz xatolarini tuzatishga undaydi.

3. Amaliy qaror va harakat. Tavba faqat iccki kecinma bilan cheklanib qolmasligi kerak. Inson gunoh va notõğri ishlardan voz kecishi, ularni takrorlamaslikka qat’iy qaror qilishi hamda avvalgi xatolarining oqibatlarini bartaraf etishga harakat qilishi zarur.

Mazkur uc bosqic õzaro uzviy boğliq bõlib, ulardan birining mavjud emasligi tavbaning tõlaqonli amalga oshishiga tõsqinlik qiladi. Masalan, inson õz xatosini anglab, undan pushaymon bõlsa-yu, ammo uni takrorlashda davom etsa, uning tavbasi amaliy jihatdan tõliq namoyon bõlmaydi. Demak, Ğazzoliy tavbani insonning butun ma’naviy hayotiga ta’sir kõrsatuvchi jarayon sifatida baholaydi.

Ğazzoliyning tavba haqidagi qarashlarida axloqiy tarbiya masalasi markaziy õrinlardan birini egallaydi. Chunki insonning ma’naviy kamoloti uning õz xatolarini tan olishi, ulardan xulosa chiqarishi va õz xulq-atvorini yaxshilashga intilishi bilan cambarcas boğliq. Şu ma’noda tavba insonni õz ustida ishlashga undaydigan iccki tarbiyaviy mexanizm vazifasini bajaradi.

Birinchidan, tavba insonda õzini anglash va õz xatti-harakatlarini tahlil qilish qobiliyatini shakllantiradi. Inson kundalik faoliyatida amalga oshirgan ishlarini baholab, ularning tõğri yoki notõğriligini anglay boshlaydi. Bunday yondashuv shaxsda õzini nazorat qilish, mas’uliyatni his etish va vijdon oldida javobgarlik kabi fazilatlarning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, tavba inson qalbida pushaymonlik, kamtarlik va samimiylik tuyğularini shakllantiradi. Õz xatosini tan olish har qanday inson uchun oson emas. Buning uchun shaxsda ma’naviy jasorat, õziga nisbatan tanqidiy munosabat va haqiqatni tan olish qobiliyati bõlishi kerak. Ğazzoliy ta’limotida aynan şu jihatlar insonning axloqiy yetukligidan dalolat beradi.

Ucinchidan, tavba insonlar õrtasidagi munosabatlarni yaxshilashga xizmat qiladi. Chunki insonning xatosi ayrim hollarda faqat uning õziga emas, balki boshqa kishilarga ham zarar yetkazishi mumkin. Bunday vaziyatda cinakam tavba zarar kõrgan insonning haqqini tiklash, yetkazilgan moddiy yoki ma’naviy zararni qoplash va kecirim sõrash kabi amaliy harakatlarni ham talab qiladi. Bu esa adolat, halollik, mehr-oqibat va insonparvarlik fazilatlarini mustahkamlaydi.

Tõrtincidan, tavba nafs tarbiyasining muhim vositasidir. Ğazzoliy insonning nafsini nazorat qilish, uni ortiqca istaklar va zararli odatlardan tiyish zarurligini ta’kidlaydi.[2] Uning fikricha, inson õzining

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

salbiy xususiyatlarini anglab, ularni bartaraf etish ustida muntazam ishlashi lozim. Tavba ana şu jarayonning boshlanish nuqtasi bõlib, insonni ma’naviy poklanish sari yetaklaydi.

Şu õrinda ta’kidlash kerakki, Ğazzoliy qarashlarida tavba insonni umidsizlikka emas, aksinca, õzini isloh qilishga undaydi. Inson õtmishda xato qilgan bõlishi mumkin, biroq bu holat uning kelajakdagi hayotini butunlay belgilab bermaydi. Muhimi, u õz xatosini anglab, undan tõğri xulosa ciqara olishi va ezgu yõlni tanlashga intilishidir.

Bugungi globallashuv şaroitida yosh avlodni ma’naviy yetuk, mustaqil fikrlaydigan, mas’uliyatli va yuksak axloqiy fazilatlarga ega insonlar etib tarbiyalash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Axborot oqimining kuchayishi, turli qarash va qadriyatlarning keng tarqalishi yoshlarning ma’naviy dunyosiga ham ta’sir kõrsatmoqda. Bunday şaroitda ularda õz xatti-harakatlarini baholash, xatolarini tan olish va ularni tuzatishga intilish kõnikmalarini shakllantirish muhimdir.

Ğazzoliy ta’limotidagi tavba tusşuncasi ushbu vazifalarni amalga oshirishda muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Chunki tavba insonni õz xulq-atvoriga befarq bõlmaslikka, qilgan ishlarining oqibatlarini anglashga va mas’uliyat bilan munosabatda bõlishga õrgatadi.

Masalan, ta’lim jarayonida õquvci yoki talaba tomonidan sodir etilgan xatoni yashirish emas, balki uni tan olish, sabablarini tusşunish va qayta takrorlamaslikka harakat qilish muhim tarbiyaviy natijaga olib keladi. Bu holat Ğazzoliy ilgari surgan tavbaning bilim, pushaymonlik va amaliy harakat bosqiclariga mazmunan mos keladi.

Şuningdek, tavba tusşuncasi yoshlar orasida halollik, vijdonlilik, kecirimlilik, sabr-toqat, mehr-oqibat va õzaro hurmat kabi fazilatlarni shakllantirishga yordam beradi. Bunda tarbiyaviy jarayon faqat nasihat va tusşuntirish bilan cheklanmasdan, yoshlarning kundalik xatti-harakatlarida ijobiy õzgarishlar yuz berishiga yõnaltirilishi lozim.[3]

Xulosa: Qisqa qilib aytganda, Abu Homid Ğazzoliyning tavba haqidagi qarashlari inson ma’naviy kamoloti va axloqiy tarbiyasini õrganishda muhim nazariy-amaliy ahamiyatga ega. Mutafakkir tavbani şunchaki gunohlardan kecirim sõrash yoki õtmishdagi xatolardan afsuslanish sifatida emas, balki insonning iccki dunyosida yuz beradigan cuqur ma’naviy õzgarish jarayoni sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, cinakam tavba insonning õz xatolarini anglashi, ulardan pushaymon bõlishi va kelgusida bunday holatlarni takrorlamaslik ucin amaliy harakat qilishi bilan namoyon bõladi.

Tadqiqot davomida Ğazzoliy ta’limotida tavbaning bilim, pushaymonlik va amaliy qaror kabi uctа muhim tarkibiy qismdan tashkil topishi aniqlandi. Ushbu bosqiclar insonning ma’naviy jihatdan õzgarishi va axloqiy kamolotga erishishida õzaro uzviy boğliqdir. Ayniqsa, tavbaning amaliy harakat bilan yakunlanishi, insonning nafaqat õz xatolarini tan olishi, balki ularning oqibatlarini bartaraf etishga intilishi zarurligini kõrsatadi.

Ğazzoliyning qarashlarida tavba insonda vijdon, mas’uliyat, halollik, kamtarlik, sabr-toqat va õzini nazorat qilish kabi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Şu bilan birga, u shaxsning boshqa insonlar bilan munosabatlarini yaxshilash, õzaro hurmat va adolat tamoyillariga rioya etishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, tavba nafaqat individual ma’naviy poklanish, balki ijtimoiy munosabatlarni soğlomlashtirishga xizmat qiluvchi axloqiy qadriyat hamdir.[4]

Bugungi kunda Ğazzoliy merosini õrganish, xususan, uning tavba va nafs tarbiyasiga oid qarashlaridan ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanish yosh avlodda yuksak ma’naviy fazilatlarni shakllantirishga yordam beradi. Yoshlarni õz xatolarini tan olish, ulardan saboq ciqarish, boshqalarning haq-huquqlarini hurmat qilish va õz ustida muntazam ishlashga õrgatish zamonaviy axloqiy tarbiyaning muhim yõnalishlaridan biridir.

Umuman olganda, Abu Homid Ğazzoliyning “Tavba” asarida ilgari surilgan ğoyalar bugungi kunda ham õz ilmiy, ma’naviy va tarbiyaviy ahamiyatini yõqotmagan. Mutafakkirning tavba haqidagi ta’limoti

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

insonni õzini anglash, ma’naviy poklanish va axloqiy jihatdan takomillashishga chorlaydigan muhim ma’rifiy meros hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abu Homid Ğazzoliy. Ihyo ulum ad-din. – Bayrut: Dor al-Ma’rifa. – 4 jild.
2. Abu Homid Ğazzoliy. Kimyoi saodat. – Tehron: Sherkat-i Intishorot-i Ilmiy va Farhangi.
3. Abu Homid Ğazzoliy. Mizon ul-amal. – Bayrut: Dor al-Kutub al-Ilmiyya.
4. Al-Ghazali. The Book of Repentance (Kitab al-Tawba). In: The Revival of the Religious Sciences (Ihya Ulum al-Din), Book XXXI.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.